



## MA'MURIY SUDLARDA RAQOBATGA DOIR ISHLARNI KO'RISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Sudyalar oliy maktabi ma'muriy huquq tinglovchisi*  
**Xolmaxmatova Shaxlo Abduhalimovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ma'muriy sudlar haqida ularda raqobatga doir ishlarni ko'rish va uning o'ziga xosligi haqida soz boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Qonun ustuvorligi, fuqaro, ma'muriy sud, konstitutsiyaviy huquq, kodeks, sud ishlari.*

So'nggi to'rt yilda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish va jamiyatda adolatni qaror toptirishda odil sudlov alohida o'rin tutishini e'tiborga olgan holda, sud-huquq sohasini tubdan isloh etishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Tariximizda ilk marotaba davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish borasidagi konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirishni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman, shaharlarda ma'muriy sudlar tashkil etildi. Bu tizim qisqa muddatlarda o'z natijasini bera boshladi.

Ma'muriy sudlarning tashkil etilishi 2018 yil 8 yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida»gi Qonuni va 2018 yil 25 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi bilan mustahkamlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida» hamda 2022 yil 28 yanvar kungi PF-60 sonli Farmoni bilan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Farmon bilan davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida, Ma'muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo'llash sohasini kengaytirishga alohida ahamiyat berildi.

Xususan, qabul qilingan «Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini qayta ko'rib chiqish tartibini ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirishga xizmat qiladi. Yangi Qonun fuqarolar uchun odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarini isloh qilish, nazorat tartibida ish yuritish institutini bekor qilish huquqiy asoslari va protsessual tartibini belgilashni nazarda tutadi.

Xolislik nuqtai-nazaridan shuni ta'kidlash kerakki, bungacha amalda bo'lgan nazorat instansiyasi tizimi sud ishlarining yillab o'z yechimini topmasdan, fuqarolarning huquqlari



buzilishiga olib kelgan. Shu bilan birga, avvalgi nazorat instansiyasi tizimi xalqaro standartlarga ham mos kelmas edi. Jumladan,

- qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini bir necha marta qayta ko'rish imkoniyati mavjud bo'lib, bu esa:

- sud qarorlarining huquqiy jihatdan aniqlik prinsipini buzilishiga;
- manfaatdor shaxslar sud ishidagi mavhumlik holatidan bir necha yillar aziyat chekishga mahkum bo'lishiga;
- oxir-oqibat sud hokimiyatining obro'-e'tiboriga putur yetkazib, nafaqat sud protsessi ishtirokchilarida balki keng jamoatchilikda sudlarga nisbatan salbiy munosabat, shuningdek huquqiy tizimga nisbatan ishonchsizlik yuzaga kelishi uchun shart-sharoit yaratar edi.

Davlatimiz rahbari tomonidan «bir sud – bir instansiya» tamoyilining ilgari surilishi sud qarorlarini qayta ko'rish tizimida yillar davomida to'planib qolgan muammolarni hal qilish yo'lida ayni muddao bo'ldi. Ya'ni ushbu tizimni tubdan ko'rib chiqishga asos soldi.

2022 yil 29 yanvar kungi «Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-107 sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur normativ hujjatlarning barchasi Ma'muriy sud ishlarini yuritishda taraflarning huquqlarini samarali himoya etilishini ta'minlashga, aholini sudlarga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Qarorga ko'ra davlat organlari tomonidan sud qarorlarining ijro etilishi ustidan nazoratning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish hamda ma'muriy sud ishlarida taraflarga kelishuv bitimini tuzish huquqini ham berish ko'zda tutildi.

Ma'muriy sudlarda ish yuritishning qonuniy asosi bo'lgan MSiyUKning 140 moddasida sud'yaning ishni sud muhokamasiga tayorlash bo'yicha harakatlari belgilangan:

1) ishda ishtirok etish uchun boshqa javobgarni yoki uchinchi shaxsni jalb etish masalasini ko'rib chiqish;

2) manfaatdor shaxslarni ishni yuritish to'g'risida xabardor qilish;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ularning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishga bo'lgan huquqlari haqida xabardor qilish;

4) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni amalga oshirishni, shu jumladan nizoni hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni taklif etish;

5) guvohlarni chaqirtirish;

6) ekspertiza tayinlash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish;

7) taraflarga zarur dalillarni olishga ko'maklashish, taraflarning iltimosnomasi bo'yicha ularni talab qilib olish;

8) taraflarning iltimosnomasi bo'yicha dastlabki himoya choralarini ko'rish va dalillarni ta'minlash to'g'risidagi masalalarni hal etish;

9) boshqa shaxslarning ishga kirishishi, ishlarni bitta ish yuritishga birlashtirish yoki arz qilingan talablarini alohida ish yuritishga ajratish, sayyor sud majlisini o'tkazish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqishi belgilangan.



Ma'muriy sudlarda raqobatga doir ishlarni ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Birinchisidan, raqobatda ishlagan sudlar, duch kelgan huquqiy masalalar va shikoyatlarni yuqori darajada himoya qilishi kerak. Bu shunday bo'lishi uchun, adolatli, obro'li va tarafsiz qilish zarur.

Ikkinchisidan, ma'muriy sudlar olganda, har tomonlama samaradorlik ko'rsatadigan bo'lish kerak. Yo'qotishlar sodir bo'lishini oldini olish kerak.

Uchinchisidan, ma'muriy sudlarda raqobatga doir masalalar kuchli savdo, iqtisodiy va huquqiy bilimni o'zida jamlaydi. Raqobat haqida xabardorlik, kerak.

Ma'muriy sudlarda raqobatga doir ishlarni ko'rishning shu xususiyatlari bo'yicha amalga oshirilishi, adolatni, insoniy qadriyatni va huquqiy himoyani ta'minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida»gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. 2018 yil 25 yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Farmoni.
4. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022 yil 28 yanvar kungi PF-60 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.
5. «Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-107 sonli Qarori. 2022 yil 29 yanvar.